

**Buxoro davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası,
filologiya fanlari nomzodi, professor
Adizova Nodira Baxtiyorovna taqrizi
ostida**

Shodiyeva Mehribon Amin qizi
BuxDPI mustaqil izlanuvchisi
Email: mexribonshodiyeva8@gmail.com


BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI LINGVISTIK TUSHUNCHALAR BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini lingvistik tushunchalar bilan tanishtirishda turli interfaol metodlardan foydalanishga oid fikr mulohazalar berilgan hamda tegishli misollar orqali yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR: “Svetofor” metodi, Xalqaro baholash dasturi, “intervyu” metodi, lingvistik tushunchalar, so‘z, so‘z birikmasi, gap, gap bo‘laklari.


KIRISH: O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov aytganlaridek: “Har bir millatning kelajagi istaymizmi-yo‘qmi, o‘qituvchilar saviyasiga bog‘liq. Bu haqiqatni hech qachon esdan chiqarmasligimiz lozim”. Darhaqiqat, yoshlar kelajagimiz bunyodkoridir, ularning kelajakda yetuk va barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida boshlang‘ich ta‘limning o‘rni beqiyosdir. Puxta egallangan dastlabki bilimlar yuqori sinfda o‘rganiladigan bilimlar uchun zamin hozirlaydi. Bugungi kunda mamlakatimiz ta‘lim tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Xalqaro baholash dasturlarining maqsadi ham keng tafakkurli, o‘z fikrini erkin bayon qila oladigan o‘quvchilarni tayyorlashdan iborat. Yangilangan ona tili darsliklarida ham aynan shu jihatni ko‘rishimiz mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o‘rgatish bevosita matn ustida ishlash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bunda tilning barcha bo‘limlari o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Lingvistik bilimlarni yetarlicha egallash natijasida tilning lug‘at boyligi oshadi, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi rivojlanadi. So‘z, so‘z birikmasi hamda gap o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni o‘zlashtirish orqali berilgan matnni to‘g‘ri tahlil qilish, mazmunini aniqlashga erishish mumkin.

MATERIALLAR VA USLUBLAR: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik dunyoqarashini shakllantirish, og‘zaki bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda, avvalo, gap va uning sintaktik hamda mazmuniy jihatdan to‘g‘ri tuzilishi muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini shakllantirish hamda imlo malakalarini yana-da rivojlantirishda so‘z, gap haqidagi ma‘lumotlarni yetarlicha yetkazib berish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida gap haqidagi dastlabki ma‘lumotlar 1-sinf dan boshlab berib boriladi. Dastlabki tasavvurlar esa savodxonlik davridan-oq hosil qilinadi. 3-sinfda o‘quvchilar gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari bilan tanishadilar. Bu mavzu orqali gap bo‘laklari va ularning joylashuvi haqidagi tasavvurlar hosil bo‘ladi. Ushbu mavzuni yana-da aniqroq va qiziqarli tarzda tushuntirish uchun turli interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, “Svetofor” metodini qo‘llash yaxshi samara beradi. Ma‘lumki, svetoforni 3 ta chiroqlarisiz tasavvur qilolmaymiz. Gapni ham to‘ldirib, bir butun holatga kelishida har bir bo‘lakning alohida o‘rni va ahamiyati bor. O‘quvchilar guruh shaklida yoki alohida bo‘lib bajarishlari mumkin. Qizil, sariq, yashil rangli doirachalarga ega, kesim va ikkinchi darajali bo‘laklarga oid so‘zlar yoziladi. Qaysi o‘quvchi yoki guruh ko‘proq “svetofor”larni hosil qilsa g‘olib deb topiladi. Bunda tuzilgan gaplar mazmunan bir-biriga mos bo‘lishiga e‘tibor qaratiladi.



ega

Nigora



ikkinchi darajali bo‘lak

bog‘ga

kesim

bordi

“Intervyu” metodi ham o‘quvchilarning tasavvur olamini kengaytirib, nazariy va amaliy bilimlarini uyg‘un holda amalga oshirishga yordam beradi. Bunda o‘quvchilarga kundalik hayotda ro‘y bergan biror voqea haqida intervyu tayyorlash vazifasi beriladi. Bunda vazifani partadoshlari bilan birga bajarishlari mumkin. Voqeani bayon qilishda qo‘llanilgan so‘z, so‘z birikmasi hamda gaplarning mazmunan va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘liqligiga e‘tibor qaratiladi. Sinfdagi o‘quvchilarning qobiliyatlarini inobatga olgan holda vaqt belgilanadi. Har bir “intervyu” lingvistik tahlildan o‘tkaziladi. Metodlarga qo‘shimcha ravishda turli lingvistik topshiriqlar ham berish mumkin. Muhimi, tanlangan metod yoki topshiriqlar to‘plami mavzu kesimida, o‘quvchilar saviyasiga mos holda tanlanishi lozim. O‘quvchilar berilgan vazifalarni amalga oshirish davomida lingvistik tushunchalarning mohiyatini yaxshiroq tushunib boradilar. Asosiysi, tanlangan metod va pedagogik texnologiyalar o‘z maqsadiga erisha olishi zarur.

NATIJARLAR VA MUHOKAMALAR: K.Qosimovaning “Ona tili o‘qitish metodikasi” kitobida shunday deyiladi: “„So‘z“ mavzusi o‘tilayotganda o‘quvchilar tomonidan so‘zning talaffuzi, leksik ma‘nosi, morfologik tarkibi, grammatik belgilari, yasalishi, nutqda ishlatilishi va yozilishini yaxlit tushunishga asosiy diqqat qaratiladi. Bunda o‘qituvchi so‘zning nom bo‘lib xizmat qilishini ham, morfemik tarkibi va leksik ma‘nosining bir-biriga ta‘sirini ham o‘quvchilarning tushunib olishlariga erishishi lozim. „Gap“ mavzusini o‘rganish vaqtida esa ishning asosiy yo‘nalishi nutqda gapning til birligi sifatidagi vazifasini tushuntirish va o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqlarida gapdan oson foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi”. Ona tili o‘rgatishning yetakchi metodik tamoyili sifatida tilning barcha tomonlarini bog‘liqlikda o‘rganish nazarda tutiladi. Boshlang‘ich sinf darsliklarini tahlil qilganimizda ham mavzular ketma-ketligi tilshunoslik bo‘limlarining o‘zaro aloqasi asosida tuzilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmuni tilning barcha qirralarini o‘zaro qamrab olgan holda ifodalaydi. Darhaqiqat, har bir lingvistik tushunchani o‘rgatishda uning o‘ziga xos tomonlarini inobatga olish zarur. Tanlangan metod hamda qo‘shimcha topshiriqlar ham tilshunoslik bo‘limlari orasidagi aloqadorlikni ta‘minlagan holda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. Yuqoridagi metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilar gap hosil bo‘lishida so‘zlar ham mazmunan, ham shaklan bir-biriga mos bo‘lishi kerakligi, so‘z birikmalarini hosil haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar. Bu metodlarni darslikdagi mashqlar bilan birgalikda matnlar uchun ham qo‘llash mumkin. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli xildagi lingvistik topshiriqlarni tuzish mumkin. Mustaqil holatda gap yoki ma‘lum bir mavzuda matn tuzish topshirig‘ini ham berish mumkin. Bunda so‘z yoki gaplardagi aloqadorlik, grammatik yaxlitlik, iloji boricha takrorlarning oldini olishga e‘tibor qaratish joiz. O‘quvchilar lingvistik mazmundagi amaliy ishlarni bajarish jarayonida tilshunoslik bo‘limlarining uzviy aloqasini anglash bilan bir qatorda so‘z boyliklarini ham oshirib, nutqlaridagi kamchiliklarni ham bartaraf etishga erishadilar.

Birgina matn asosida bir qancha lingvistik topshiriqlarni tuzish mumkin. Masalan, matnda berilgan bir-biriga ma‘no jihatidan yaqin bo‘lgan so‘zlarni o‘zaro guruhlash, gaplar orasidan zid ma‘noli so‘zlarni topish, aynan bir turkumga mansub bo‘lgan so‘zlarni ajratish kabi qo‘shimcha

topshiriqlarni bajarish orqali tilshunoslik bo‘limlariga oid elementar bilimlar berib boriladi. Shu bilan birga tilga oid tushunchalarni ongli ravishda egallash, grafik hamda imloviy malakalarni mustahkamlashga erishiladi. Lingvistik kompetensiyalarni to‘g‘ri anglash, og‘zaki nutqda o‘rinli foydalana olish orqali o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, ravon nutq malakalarini hosil qilish mumkin. O‘quvchilarda so‘zlarni hosil qilishda tovushlarni aniq ayta olish, so‘z birikmalarini hosil qilishda esa qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llash, gap tuzish jarayonida mantiqiy izchillikni inobatga olish, tinish belgilariga rioya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish dars samaradorligini oshirish hamda tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga katta yordam beradi. Lingvistik tushunchalarni o‘rganishda izohli, imlo lug‘atlaridan foydalanish ham anchagina yaxshi samara beradi. Chunki, so‘z yoki so‘z birikmalar imlosi va mazmuni birgalikda o‘rganilganda xotirada yana-da mustahkamroq o‘rnashadi.

XULOSA: Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, lingvistik tushunchalarni o‘rganish orqali tilning barcha tomonlari haqidagi bilimlarga ega bo‘lish mumkin. Ushbu jarayonni qiziqarli hamda tushunarli tarzda tashkil qilish o‘qituvchidan yetarlicha pedagogik mahoratni talab qiladi. So‘z, so‘z birikmasi va gap haqida tushunchaga ega bo‘lish, ularni o‘zaro bir-biridan farqlash hamda to‘g‘ri qo‘llash malakasini shakllantirish natijasida o‘quvchilarda lingvistik bilimlarga oid tasavvurlar shakllanib boradi. Ushbu tushunchalarni o‘rgatishda aniq reja asosida tanlangan topshiriqlar tizimi, interfaol metod yoki pedagogik texnologiyalarni qo‘llash lozim. Namuna asosidagi, ijodiy topshiriqlar, turli konstruktiv mashqlar vositasida lingvistik tushunchalarga oid bilimlar mustahkamlab boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021
3. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi. Ona tili (1-11-sinf). O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.
4. Qosimova K, Matjonov S, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh, Sariyev Sh. “Ona tili o‘qitish metodikasi”.
5. Abdullayeva F.N., Shodiyeva M.A. Ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o‘rgatishning ahamiyati. Pedagogik tadqiqotlar jurnali.- 2024, noyabr
6. Shodiyeva M.A. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o‘rgatishning nazariy asoslari “Globallashuv sharoitida ilm-fan muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya. – 2024